

**XITOIY TILI VA DUNIYODA UNING OMMAVIYLASHUVI
HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.**

Qodirjonova Gulsanam Sherzodbek qizi ¹

¹ Andijon davlat chet tillari instituti
IFO'MT fakulteti, Filologiya va tillarni o'qitish:
Ingliz tili 201- guruh talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:16.06.2025

Revised: 17.06.2025

Accepted:18.06.2025

Ushbu maqolada xitoy tilining shakllanish tarixi va chet mamlakatlarga kirib kelishi haqida so'z yuritiladi. Uning ommaviylashuvidagi turizm, savdo va ta'lim sohalariga alohida to'xtalib o'tiladi.

KALIT SO'ZLAR:

*xitoy tili, xitoy
madaniyati, hierogliflar,
xalqaro savdo, xalqaro
ta'lim.*

KIRISH. 注释: 本文讨论了汉语的形成历史及其进入外国的过程。特别关注了汉语在旅游、贸易和教育领域的普及。

关键词: 汉语 (Hànyǔ), 中华文化 (Zhōnghuá wénhuà), 汉字 (Hànzì), 国际贸易 (Guójì mào'yì), 国际教育 (Guójì jiàoyù)。

Kirish. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar ta'lim dasturlari fanlarida, turizm sohalarida orasida eng oldingi o'rinlarni egallab kelayotgan xitoy tili, albatta, buyuk tarixga ega bo'lgan til hisoblanadi. Xitoy tili (汉语) –tarixi buyuk deyilishining muhim sabablaridan biri–bu rivojlanish murakkab jarayonlar orqali bugungi ko'rinishiga kelgan va besh ming yillik tarixni o'z ichiga oladi.

Ushbu besh ming yillik tarix boshlanishii miloddan avvalgi 3-ming yillikka borib taqaladi. Bu davrda ilk yozuvlar – hierogliflar paydo bo'ldi. Dastlabki yozuvlar, asosan, din, hukumat va qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlarni qayd etishda ishlatilgan. Bu yozuvlar Xitoyning ilk davlat tizimi va jamiyatining shakllanishida muhim rol o'ynadi [Li, 2009].

Insoniyat sivilizatsiyasi bilan birgalikda xitoy tili ham ketma-ket rivojlana boshlanadi. Miloddan avvalgi 1-ming yillikda Xitoy tilida klassik chin yozuvi shakllana boshladi. Bu davrda tilning strukturasi va grammatikasi shakllana boshladi va yozma til o'zining hozirgi ko'rinishlariga yaqinlashdi. Xitoyda klassik adabiyot, shu jumladan, Konfutsiy va Laozi asarlari bu davrda yaratildi [Chen, 2015].

=====

Xitoy tili tarixi haqida yaratilgan manbalarga ko'ra, yuqoridagi bosqichlar davomida xitoy hududlarida turli xil dialektlar ham paydo bo'la boshladi. 20-asrga qadar Xitoy hukumatidagi birlashuvlar va hamjihatlik tufayli tilga bo'lgan talab yanada kuchaydi va keng qamrovli aholi o'zlashtira boshladi. Mana shu 20-asrdan keyin esa xitoy tili zamonaviylasha boshladi. Yangicha va qulayroq bo'lgan yozuv joriy qilindi va xitoyliklar ham, xitoy tilini o'rganish niyati bo'lgan chet elliklar uchun ham osonroq bo'lishi uchun "pinyinlar" ixtiro qilindi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xitoy tili dunyodagi eng qadimiy hamda eng ko'p so'zlashiladigan til hisoblanadi. Yana bir qiziq jihati ko'pchilikka ma'lumki, xitoy tili yozuvi harflar emas ierogliflar asosida qurilgan. Ushbu ierogliflar bugungi kunda ham deyarli tarixiy ko'rinishidan o'zgarishsiz qolgan. Chunki ushbu ierogliflar xitoy tarixiy an'analari, urf-odatlarini aks ettiradi deb qaraladi. Ushbu ierogliflarni o'zgartirish an'analarni o'zgartirish deb hisoblaydilar. Chunki aytib o'tilganidek xitoy madaniyati va tili bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Xitoy tili faqatgina til hisoblanmay madaniyat va tarixni anglatuvchi vosita hisoblanadi.

O'z o'rnida xitoy falsafasining ham tilga ta'siri kuchli. Masalan., Confucianizm va Daoizm kabi falsafiy tizimlar Xitoy tiliga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xitoy tilidagi ko'plab iboralar va so'zlar bu falsafiy tushunchalarni ifodalashda ishlatiladi. Misol uchun, "仁" (rén) — bu "insonparvarlik" yoki "mehribonlik" tushunchasini anglatadi, bu esa Konfutsiy falsafasining markaziy qadriyatidir[1;Konfutsiy].

Hammamizga ma'lumki Xitoy xalqi iqtisodiy kuchga ega xalq hisoblanadi. Mana shu kuch o'z o'rnida xitoy tilining ommalashuviga ham katta turtki bo'ldi. Nafaqat bugungi kunda balki asrlar davomida ushbu xalq savdo tarmoqlarini va biznes sohalarini sezilarli darajda o'stirib kelgan. Ushbu sivilizatsiya natijasida global bozor ichida Xitoy eng oldingi o'rinlarda turganligi bois ko'plab savdo kompaniyalarida xitoy tiliga talab kuchaymoqda. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Xitoy texnologiyalar tobora rivojlantilayotgan davlat ekan, albatta, ushbu texnologiyalar orqali ko'p aholi xitoy tilini o'zlashtirmoqda. Misol qilib Xitoyda ishlab chiqarilgan telefonlar yoki kompyuterlarni aytishimiz mumkin. Shuni aniqlik, texnologiyalar rivojlangan hududda ilm-fan ham yuksak reytinglarga ko'tariladi. Shu jihatdan ham Xitoy tili xalqaro ta'lim tizimida o'z o'rniga ega. Ko'plab davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida, davlat yoki nodavlat o'quv markazlarida, xatto maktablarda ham ta'lim dasturiga kiritila boshlandi.

Xulosa qilib aytganda, xitoy tili uzoq va boy tarixga ega bo'lgan bugungi kundagi eng rivojlangan tillar sirasiga kiruvchi til hisoblanadi. Uning bugungi kundagi ilg'or o'rinlardagi ommalashuviga davlatning iqtisodiy rivojlanlanganligi, texnologiyalar va ilm-fan taraqqiyoti deyish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Konfutsiy. “Konfutsiyning so‘zlari”. O‘zbekiston: 2000;
 - 2.Li, X.“A History of the Chinese Language”. Beijing: Peking University Press.2009;
 - 3.S. N. Hashimova.“Xitoy tili”. Toshkent: 2017;
 - 4.Chen, Ping."A History of the Chinese Language" ("Xitoy tilining tarixi);
 - 5.Xitoy tili o‘qitish kursi. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Samarqand: 2014.
- Foydalanilgan internet tarmoqlari:
- 1.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xitoy>.